



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 11-dekabr

698-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 14-noyabrda PF–184-son Farmoni ijrosi haqida”gi 587-6-0-Q/24-son qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 14-noyabrda PF–184-son Farmoni hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 7-dekabrda 587-6-0-Q/24-son qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

- Namangan viloyati hokimining 2024-yil 7-dekabrda 587-6-0-Q/24-son qarori rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrda PF–184-son Farmoni bilan: Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (keyingi o‘rinlarda — Biznes ombudsman), Oliy Sud, Bosh prokuratura, Adliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi va Savdo-sanoat palatasining quyidagi takliflariga rozilik berilganligi:
  - 2025-yil 1-yanvardan jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tmasdan amalga oshirganlik uchun moliyaviy jarimani bekor qilishi;
  - 2025-yil 1-yanvardan boshlab quyidagilar uchun ma‘muriy javobgarlikni bekor qilishi: fiskal belgilarni aks ettirish tartibini buzish; qonunchilikda majburiy raqamli markirovkalanishi belgilangan tovarlarni (mahsulotlarni) ishlab chiqaruvchilar va import qiluvchilar tomonidan identifikatsiya vositalari orqali majburiy raqamli markirovkalash qoidalarini buzish; xodimlar sonini yashirish;
  - 2025-yil 1-martdan boshlab sudda ish yuritish taraflar kelishuv bitimi tuzganligi sababli tugatilganda, tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarga davlat bojini quyidagi miqdorlarda qaytarib berish tartibini joriy etishi:
    - birinchi instansiya sudida — to‘langan davlat bojining 70 foizi;
    - apellyatsiya va kassatsiya tartibida berilgan shikoyatlar bo‘yicha sudda — to‘langan davlat bojining 30 foizi;tadbirkorlik subyektlari faoliyatini nazorat qilishga vakolatli organlar (keyingi o‘rinlarda — nazorat qiluvchi organlar) va ularning nazorat sohalari ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi; bunda ushbu ro‘yxatga kiritilmagan organlar hamda tashkilotlar tomonidan hamda nazorat sohasida nazarda tutilmagan masalalar bo‘yicha tadbirkorlik subyektlari faoliyatida nazorat tadbirlarini o‘tkazish taqiqlanganligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustda PF-132-son Farmoniga muvofiq, 2025-yil 1-yanvardan boshlab nazorat qiluvchi organlar tomonidan “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi joriy

etilishi, shuningdek, tekshiruv va profilaktika tadbirlarini tashabbus etish ushbu tizim natijalari asosida amalga oshirilishi ma'lumot uchun qabul qilinganligi;

belgilansinki, 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkaziladigan barcha tekshiruvlar "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida ro'yxatga olish orqali Biznes-ombudsmanni xabardor etish tartibida amalga oshirilishi;

tekshiriladigan tadbirkorlik subyekti aniq bo'lmagan holatlarda, shuningdek, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, jamoat xavfsizligiga, davlat manfaatlariga, atrof-muhitga zarar yetkazish xavfining tezkor oldini olish yoki bartaraf etish maqsadida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida 2-ilovaga muvofiq tekshiruvlar tekshiruv boshlangandan so'ng 24 soat ichida "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida ro'yxatga olish orqali Biznes-ombudsmanni xabardor etish tartibida amalga oshirilishi;

"Xavfni tahlil qilish" elektron tizimida tadbirkorlik subyektlari faoliyatida huquqbuzarlik sodir etish xavfi past, o'rta va yuqori darajalarga tasniflanishi;

bunda O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 39-moddasiga muvofiq, kameral soliq tekshiruvlari "Yagona davlat nazorati" axborot tizimida ro'yxatga olinmasligi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq tadbirkorlik subyektlari faoliyatida "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimi natijalari asosida profilaktika tadbirlari va tekshiruvlarni o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshirilishi:

xavf darajasi past bo'lgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshiruvlar o'tkazilmaydi;

xavf darajasi o'rta va yuqori bo'lgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarning oldini olishga qaratilgan profilaktika tadbirlari o'tkaziladi yoki tekshiruv o'tkazilishi mumkin;

aniq fakt va hollar bo'yicha fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga, jamoat xavfsizligi, atrof-muhitga, jismoniy va yuridik shaxslarning hamda davlat manfaatlariga zarar yetkazish xavfining oldini olish yoki bartaraf etishga qaratilgan tekshiruvlar "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimi natijalaridan qat'i nazar o'tkazilishi mumkin;

soliq va bojxona organlari tomonidan "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimi Soliq va Bojxona kodekslariga muvofiq yuritilishi;

profilaktika tadbirlari doirasida amaldagi profilaktika shakllariga qo'shimcha ravishda Biznes-ombudsman va nazorat qiluvchi organlar tomonidan tasdiqlangan namunadagi cheklist to'ldirilishi natijalari bo'yicha tadbirkorlik subyektlari faoliyatida qonunbuzilishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishga ko'maklashilishi;

tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha "yo'l xaritasi" 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 4-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 5-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**